

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida**  
**UDK: 336.761 (575.1)**

**RO'ZIQULOV ABDIMO'MIN QUSSAM O'G'LI**

**IKKILAMCHI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH**  
**MEXANIZMI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**  
**DISSERTATSIYA ISHI**

**Ilmiy rahbar:** Iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor M.P. Eshov

**Toshkent – 2025 yil**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB IKKILAMCHI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>12</b>
1.1-§ Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishining nazariy asoslari.....	12
1.2-§ Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ahamiyatli jihatlari.....	22
1.3-§ Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy instrumentlarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	33
Birinchi bob bo‘yicha ilmiy xulosalar.....	<b>47</b>
<b>II BOB IKKILAMCHI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>50</b>
2.1-§ O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining amaliyoti.....	50
2.2-§ O‘zbekistonda davlat qimmatli qog‘ozlarining ikkilamchi savdosi holati tahlili.....	63
2.3-§ O‘zbekistonda fond bozori indeksiga ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori ta’sirining ekonometrik tahlili.....	78
Ikkinchi bob bo‘yicha ilmiy xulosalar.....	90
<b>III BOB O‘ZBEKISTONDA IKKILAMCHI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>93</b>
3.1-§ O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	93
3.2-§ O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish istiqbollari.....	107
Uchinchi bob bo‘yicha ilmiy xulosalar.....	120
<b>XULOSA.....</b>	<b>123</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>126</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Bugungi kunda jahon miqyosida yuz berayotgan murakkab makroiqtisodiy va geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarning kapital bozorlarida kuzatilayotgan beqarorliklar, narxlarning keskin tebranishi va global iqtisodiy tahdidlar mazkur bozorda zamonaviy mexanizmlarni joriy etishni dolzarb masalaga aylantirdi. Bu esa, o‘z navbatida kapital bozoridagi foiz stavkalarining barqarorligini ta’minlash va davlat qimmatli qog‘ozlarining daromadlilik darajasini izchil saqlashga xizmat qilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, “2023-yilda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlar aylanmasi 114 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lib, ushbu segment so‘nggi 10 yilda 16 foizlik o‘sishni qayd etdi”<sup>1</sup>. Bu raqamlar mazkur bozorning jahon kapital tizimidagi strategik ahamiyatini namoyon etib, aktivlar aylanmasini oshirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Jahondagi yirik moliya bozorlarida moliyaviy instrumentlar bozor qiymatining dinamik o‘zgarishi va iqtisodiy noaniqlik sharoitida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar, xususan obligatsiyalar, opsonlar va forward bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar faol davom etmoqda. Ayniqsa, qimmatli qog‘ozlar bozorining ikkilamchi segmenti uchun muhim bo‘lgan aksiyalar, obligatsiyalar va derivativlarning savdo hajmini oshirish masalasi tadqiqotchilarining diqqat markazida turibdi. Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar indeksi opsonlari, valyuta opsonlari, tovar opsonlari, foiz stavkalari, foiz stavkasi fyucherslari va indekslariga asoslangan opson fondlarini rivojlantirish dolzarb masalalardandir. Bundan tashqari, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmasini birlamchi bozorga nisbatan oshirish hamda davlat qimmatli qog‘ozlar bozorining ikkilamchi segmentini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kundagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investorlarni ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb etish,

---

<sup>1</sup> Evercore Private Capital Advisory – FY 2023 Secondary Market Survey Results - Highlights

investorlarning ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirokini faollashtirish maqsadida kapital bozorining institutsional tartibini soddalashtirish, kapital bozori ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish hamda qimmatli qog‘ozlar bozorining ikkilamchi savdosini rivojlantirish jarayoniga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Xusan, “Ikkilamchi bozorda davlat qimmatli qog‘ozlari uchun hisob-kitoblarni «T+2» shaklida ham joriy qilish”<sup>2</sup> vazifasi belgilab berildi. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi dividendlar va foiz ko‘rinishidagi daromadlarni “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ va investitsiya vositachilari orqali qimmatli qog‘ozlar egalari, investitsiya vositachilari hamda chet ellik nominal saqlovchilarning hisobvaraqlariga to‘lash tartibini takomillashtirish, davlat ulushi yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ikkilamchi ommaviy takliflarini amalga oshirishda institutsional investorlar uchun sotib olinadigan aksiyalar bo‘yicha cheklowlarni bekor qilish, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ikkilamchi ommaviy takliflarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari uchun depo hisobvaraqlarni va buyurtma berishlarni masofadan turib amalga oshirish tartibini joriy qilish, davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirishni amalga oshirishda anderrayter, investitsiya vositachilari va boshqa konsultantlar orqali aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini aniqlashga yo‘naltirilgan izlanishlar ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

Dissertatsiya ishi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi»[8], «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi»[12], «2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi»[9] va «2023-yil 29-apreldagi PQ-102-sonli “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi»[11], «2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 2 сентябрдаги «Капитал бозорини ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-291-сон Қарори.

sonli “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi»[13], «2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi»[14], «2024-yil 19-apreldagi PQ-163-sonli “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi»[10] qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy va amaliy muammolari ko‘plab taniqli olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu sohada, xususan, “M.O’Xara, Yu.Fama, T.Fuko, M.Pagano, A.Roel, Y.Amixud, X.Mendelson, M.Avelyaneda, S.Stoykov, V.A.Galanov, B.Bxattacharay, P.Dattel, G.Schinasi, T.Smit, M.A.Eskindarova, Y.A.Zvonovoy, V.E.Chernova”<sup>3</sup> kabi olimlarning asarlari muhim ilmiy manbalar hisoblanadi. Ular qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish mexanizmlarini nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarda tahlil qilgan.

“Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmi masalalarining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sh.Sh.Shoxa’zamiy, L.I.Butikov, M.B.Xamidulin, N.G‘.Karimov,

<sup>3</sup>O’Hara, Maureen, 1995, Market Microstructure Theory, Cambridge MA: Blackwell; Fama, Eugene (1970). "Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work". Journal of Finance. 25 (2): 383–417.; Foucault, T., Pagano, M., Roell, A., 2013. Market Liquidity Theory, Evidence, and Policy. Oxford University Press, New York.; Yakov Amihud & Haim Mendelson, 2012. "Liquidity, the Value of the Firm, and Corporate Finance," Journal of Applied Corporate Finance, Morgan Stanley, vol. 24(1), pages 17-32, March.; Avellaneda, Marco, and Sasha Stoikov. 2008. "High-Frequency Trading in a Limit Order Book." Quantitative Finance 8 (3): 217–24.; Галанов В. А. Рынок ценных бумаг : учебник / В. А. Галанов. — М. : Инфра-М, 2016. — 378 с.; Bhattacharyay, B. (2011). Bond market development in Asia: An empirical analysis of majordeterminants (ADBI Working Paper 300). Tokyo: Asian Development Bank Institute.; Dattels, Peter, 1995. The Microstructure of Government Securities Markets (November 1995). IMF Working Paper, Vol. , pp. 1-90.; Schinasi, Garry J. and R. Todd Smith (1998), “Fixed-Income Markets in the United States, Europe and Japan: Some Lessons for Emerging Markets,” IMF Working Paper WP/98/173 (December).; М.А.Эскиндарова ва Е.А.Звоновой “Международный финансовый рынок” учебник и практика Москва 2017 г. 29 с. Чернова В.Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015. 73 с.

B.Toshmurodova, S.Elmirzayev, F.Muxamedov, J.Karimqulov, J.Qurbanov, N.Tursunova, U.Xolikov, Q.Cinchulov, X.Xudoyqulov, A.Shomirov, X.Tillayev, A.Alikulov, A.Karimov va boshqalar tomonidan ham o‘ziga xos tarzda o‘rganilgan”<sup>4</sup>.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston kapital bozorini rivojlantirishning konseptual yo‘nalishlari va asoslari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmi bo‘yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida moliyaviy instrumentlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori haqida tushuncha va uning qimmatli bozoridagi ahamiyatli jihatlarini tadqiq qilish;

O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holatini tahlil qilish;

davlat qimmatli qog‘ozlarining ikkilamchi savdosi amaliyotini tadqiq etish;

<sup>4</sup>Шохазамий Ш.Ш. Ш.Ш. “Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане”. Автореферат ст. 1-42, Т; 2011г, Шохазамий Ш.Ш. “Молия бозори ва қимматли қофозлар” дарслик Т., ТФИ. 2012, бет-440.; Бутиков Л.И. “Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане” Автореферат Т,-2008, ст.1-41, Бутиков И.Л. Рынок ценных бумаг. Учебник. – Т.: Консаудитинформ, 2001-472 с; Н.Ф.Каримов “Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари” Автореферат, Т,- 2007, бет.1-40, Н.Ф. Каримов ва Р.Х. Хожиматов. Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш: Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2011, 771-787 бет; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления.–Т.: Молия, 2008,-204 с; Б.Тошмуродова ва бошқалар. Корпоратив молияни бошқаришнинг долзарб масалалари: Монография. Т.: «Иқтисод-молия», 2017. Б. 188 бет.; Элмирзаев С. Корпоратив молия. Дарслик . - Т.: «Иқтисод-молия», 2019 й. 363 бет.; Элмирзаев С. Замонавий корпоратив бошқарув: Дарслик / - Т.: «Иқтисод-молия», 2019. 416 б.; Мухамедов Ф. «Ўзбекистонда қимматли қофозлар бозори савдо тизимларини ривожлантириш йўналишлари» мавзусидаги иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати: Т.: 2019 766. Каримкулов Ж. «Ўзбекистон иқтисодиётида қимматли қофозлар бозори ролини ошириш йўллари» И.Ф.Н. илмий даража олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. - Тошкент. 2012. - 206. Ж.Курбонов ва бошқалар. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал инвесторлар иштироки. «Иқтисод ва молия» илмий журнали. №1(137) 2021 йил. - Б.57.; Н.Турсунова. «Корпоратив молияни бошқаришда молиявий таъминотни самарали ташкил этиш йўллари».

O‘zbekistonda fond bozori indeksiga ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining ta’sir etishini ekonometrik modellar asosida baholash;

O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmining amal qilish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmida yuzaga keluvchi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik ma’lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

dividendlar va foiz ko‘rinishidagi daromadlarni “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ va investitsiya vositachilarini orqali qimmatli qog‘ozlar egalari, investitsiya vositachilarini hamda chet ellik nominal saqlovchilarning hisobvaraqlariga to‘lash tartibini joriy etish taklifi asoslangan;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarining ikkilamchi ommaviy takliflarini amalga oshirishda institutsional investorlar uchun sotib olinadigan aksiyalari bo‘yicha cheklovlarni belgilamaslik taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarining ikkilamchi ommaviy takliflarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari uchun depo hisobvaraqlarni va buyurtma berishlarni masofadan turib amalga oshirish tartibini joriy qilish taklif etilgan;

davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirishni amalga oshirishda anderrayter, investitsiya vositachilarini va boshqa

konsultantlar orqali aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini aniqlash taklifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirokchilarga dividendlarni o‘z vaqtida hisobvaraqlariga to‘lab berish tizimi ishlab chiqilgan;

minoritar aksiyadorlarning dividendlarini o‘z vaqtida to‘lash hamda sof foyda bilan chiqqan aksiyadorlik jamiyatlarining mablag‘larini dividendga yo‘naltirishga qaratilgan mexanizmning samarali joriy etilishi minoritar investorlar o‘z aksiyalaridan turg‘un daromad olishi va ikkilamchi qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talabning oshishiga olib kelishi asoslangan;

xorijiy va mahalliy investorlarni ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida faolligini oshirish orqali masofadan hisobraqam ochish mexanizmi ishlab chiqilgan;

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlarni ommaviy joylashtirishni amalga oshirishda professional ishtirokchilar tomonidan aksiyalar narxini quyi va yuqori chegaralarini aniqlash mexanizmi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yetakchi iqtisodchi olimlarning ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmi bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish hamda umumlashtirish, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha ekspertlar tahlillari natijalari hamda milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalariga asoslanganligi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining statistik ma’lumotlari, Korporativ axborot yagona portalini va “Toshkent” Respublika fond birjasining statistik ma’lumotlariga asoslanib jarayonni tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy xulosalar qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va tavsiyalardan kapital bozorini rivojlantirish istiqboliga mo‘ljallangan strategiyada

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmiga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va tavsiyalardan kapital bozorini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda kapital bozorini rivojlantirishda foydalanish, shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoriga mahalliy hamda xorijiy investorlarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalg qilish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonun osti hujjatlari, mamlakat Prezidentining farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy, amaliy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar asosida:

dividendlar va foiz ko‘rinishidagi daromadlarni “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ va investitsiya vositachilari orqali qimmatli qog‘ozlar egalari, investitsiya vositachilari hamda chet ellik nominal saqlovchilarning hisobvaraqlariga to‘lash tartibini joriy etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 26-apreldagi 03/10-1-12/1618-ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida aksiyadorlarga dividendlarni to‘lashni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini berib, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida qimmatli qog‘ozlarning likvidligini ta’minalashga hamda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining savdo hajmini ortishiga olib kelgan;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ikkilamchi ommaviy takliflarini amalga oshirishda institutsional investorlar uchun sotib olinadigan aksiyalari bo‘yicha cheklowlarni belgilamaslik taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-

son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 26-apreldagi 03/10-1-12/1618-ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy-amaliy yangilikning amaliyatga tatbiq etilishi natijasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi savdoda institutsional investorlar salmog‘ining oshishiga hamda ikkilamchi bozorni yanada rivojlantirishga imkon yaratib, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining infratuzilmasini rivojlanishiga turtki bo‘lgan;

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ikkilamchi ommaviy takliflarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari uchun depo hisobvaraqlarni va buyurtma berishlarni masofadan turib amalga oshirish tartibini joriy qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 26-apreldagi 03/10-1-12/1618-ma’lumotnomasi). Ushbu tartibning joriy etilishi natijasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlar ishtirokining ortishiga hamda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar savdosi bilan bog‘liq jarayonni tezlashtirishga va savdo hajmining ortishiga olib kelgan;

davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirishni amalga oshirishda anderrayter, investitsiya vositachilari va boshqa konsultantlar orqali aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini aniqlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 26-apreldagi 03/10-1-12/1618-ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar paketi hajmining

ortishiga va aksiyalarni ikkilamchi savdoga chiqarish muddatini belgilash hamda aksiyaning nominal va baho qiymatiga bog‘liq bo‘lмаган narx chegaralarini belgilash imkonini bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, shu jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola hamda respublika va xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma’ruza tezisi nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiyligi 133 betni tashkil etadi.